



Dastlabki ma'lumotlar


2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirdorlik faoliyati integratsiyasi kabilalar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 819,6 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 963,2 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligи va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7819604,5	103,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	336186,4	103,8
Moliyaviy xizmatlar	1333906,9	141,4
Transport xizmatlari	1799490,6	101,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1701268,1	102,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	322561,4	81,2
Savdo xizmatlari	2504996,0	100,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	197606,0	93,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	405947,2	93,2
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	122367,0	83,4
Ijara xizmatlari	190634,5	96,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	151828,4	97,9
Shaxsiy xizmatlar	151000,2	91,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	80813,8	71,3
Boshqa xizmatlar	222266,1	95,9

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 32,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,0 %), moliyaviy xizmatlar (17,1 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar bo'yicha (5,2 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Eng yuqori ulush



Eng past ulush



	Savdo xizmatlari	32,0 % 32,1 %		Boshqa xizmatlar	2,9 % 3,0 %
	Transport xizmatlari	23,0 % 23,6 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,5 % 2,8 %
	Moliyaviy xizmatlar	23,6 % 17,1 %		Ijara xizmatlar	2,4 % 2,6 %
	Ta'lif sohasidagi xizmatlar	5,2 % 5,5 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	2,0 % 2,1 %
	Aloqa va axborotlashdirish xizmatlari	4,3 % 4,6 %		Shaxsiy xizmatla	1,9 % 2,0 %
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4,1 % 4,8 %		Sog'lijni saqlash sohasi xizmatlari	1,6 % 1,8 %
	Yanvar-oktabr 2019- y.			Me'morchilik sohasi xizmatlari	1,0 % 1,5 %
	Yanvar-oktabr 2020- y.				

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,0 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar - 1,6 %, shaxsiy xizmatlar - 1,9 %, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari hissasi 2,0 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (41,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,8 %), shuningdek transport xizmatlari (1,3 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi



Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi hajmi sezilarli darajada (28,7 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,8 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (16,6 % ga), shaxsiy xizmatlar (8,5 % ga), ta'lim sohasidagi xizmatlar (6,8 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (6,7 % ga), boshqa xizmatlar (4,1 % ga), ijara xizmatlari (3,7 % ga), shuningdek kompyuterlarni ta'mirlash sohasidagi xizmatlar (2,1 % ga) da pasayish kuzatildi.


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtaqidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi 32,0 % ni tashkil etib, bu 2 505,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiylajmi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismiga, aniqrog'i 79,4 % iga to'g'ri keladi.

Igurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllarning savdosidan tashqari) 15,0 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiylajmi hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 1333,9 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ularning hajmi 933,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 17,1 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning ulushi 13,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 400,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 41,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- oktabr oylarida ularning o'sish sur'ati 173,2 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 336,2 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 103,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Aloqa va axborotlash-tirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekom-munikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va bosh-qalar) egallab, 95,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida noshirlik xizmatlari - 1,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,0 %, boshqa aloqa xizmatlari - 1,0 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,4 %, dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 405,9 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi G`iduvon (30 196,4 mln. so'm), Buxoro (12 400,4 mln. so'm), Jondor (9 994,3 mln. so'm) va Shofirkon (8 167,3 mln. so'm) tumanlarida, hamda Buxoro shahrida (299 420,8 mln. so'm) qayd etildi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Qorovulbozor (1 953,1 mln. so'm), Olot (5 049,4 mln. so'm), Peshko` (5 955,4 mln. so'm) Qorako'l (6 046,9 mlrd. so'm) tumanlarida va Kogon sh. (5 316,8 mln. so'm) belgilandi.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar***(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)*

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 322,6 mlrd. so'mga teng bo'lган.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 4,1 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan turar joy va umumiyligi ovqatlanish xizmatlari hajmi 5,3 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.



Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi - 85,1 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 14,9 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmat-larning hajmi 122,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiylajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 83,4 % ni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiylajmida shahar va tumanlar ulushini taqqoslanishi, % da




Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi yuqori - 50,5 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush G`igduvon (8,0 %), Buxoro (8,0%) tumalarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'lgan tumanlar Qorovulbozor (0,6 %), Kogon (1,8 %), Olot (2,8 %), Peshko` (2,9 %) Shofirkon (3,0%) shuningdek, Jondor (3,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**



Xizmatlarning umumiyligi hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 46,1 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush G`ijduvon (11,7 %), Buxoro (4,8 %), Vobkent (4,6 %) va Jondor (4,3 %) tumalarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,5 %), Kogon (3,2 %), Olot (3,5 %), Shofirkon (3,7 %) tumanlari va Kogon shahrida (3,4 %) kuzatildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi




Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Buxoro shahrining ulushi 44,5 % ni tashkil etgan.

Qorovulbozor tumanining ulushi esa eng past ekanligi - 1,7 % kuzatilgan.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon (102,4 %), Qorako'l (101,5 %), Buxoro (104,3 %), Peshko' (101,3 %) tumanlarida va Buxoro shahrida (107,2 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'Imagan o'sish Shofirkon (100,9%), Olot va Vobkent (100,8), Romitan (100,3 %) tumanlarida, Kogon shahrida (100,6 %) qayd etildi.



Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Ko'rileyotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Buxoro shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 554 565,7 mln. so'mga oshdi va 3 606 736,4 mln. so'mga yetdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning
asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
Buxoro viloyati *)	7 819 604,9	103,5	111,5
Olot	270 104,7	100,8	108,3
Buxoro	378 091,2	101,3	108,1
Vobkent	356 657,0	100,8	108,8
G'ijduvon	915 625,6	100,0	108,7
Jondor	332 548,0	100,3	108,8
Kogon	251 383,5	102,4	110,7
Qorako'l	314 904,7	101,5	106,9
Qorovulbozor	120 332,6	92,1	100,2
Peshko'	355 888,8	101,0	108,5
Romitan	356 881,2	100,5	107,0
Shofirkon	293 192,5	100,9	108,5
shaharlar:			
Buxoro shahri	3 606 736,4	107,2	114,0
Kogon shahri	267 258,3	100,6	107,0

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G`ijduvon (915 625,6 mln. so'm), Buxoro (378 091,9 mln. so'm), Romitan (356 881,2 mln. so'm) va Peshko` (355 888,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamонавиј О'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 047,8 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi – 4 047,8 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan – 102,1 %

Hajming o'sishi, 2019-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan – 449,4 ming so'mga

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi,
ming so'm
(2020-yilning yanvar-oktabr oylarida)**



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Buxoro shahrida 12 858,2 ming so'mdan Shofirkon tumanida 1 650,0 ming so'm-gacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Qorovulbozor tumanida o'rtacha doimiy aholi soni (2020 yilning yanvar-oktabr oylarida - 18,4 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 6 539,8 ming so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'r-satayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 63,7 %, sanoat - 15,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

sohasi 11,0 % to'g'ri keldi. Qurilish sohasining ulushi - 9,8 % ga yetdi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (41,5 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,5 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,7 % ga yetdi.


Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.



Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 14,7 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 37,5 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,0 %, tashish va saqlash - 9,0 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,8 %, axborot va aloqa - 1,6 %, hamda boshqa turdag'i xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 36,1 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,8 mingtaga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning soni 3,2 mingtaga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 31,4 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,7 mingtaga ko'paydi va 7,2 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 24,1 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,4 mingtaga ko'paydi va 2,2 mingtani tashkil etdi.

**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirdorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirdorlik subyektlarining hissasi 87,6 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019 - yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 84,9 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2 825 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 14 195 tani tashkil etdi va o'sishi esa 24,8 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligining sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,0 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 58,6 % ekvivalentida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobjiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo`limi

Tel.: 65-223-79-41

Xizmatlar sohasining rivojlanishi